

**TALABA-YOSHLARDA TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA
O‘ZARO HAMKORLIK FAOLIYAT MEXANIZMINI
RIVOJLANTIRISH**

Shodmonova Baxtiniso Murtozayevna
90-sonli maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talaba-yoshlarni hamkorlik pedagogikasi asosida ijtimoiy hayotga tayyorlashda ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarga aniq ko‘rsatmalari va faoliyat mexanizmlarini takomillashtirishga oid fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hamkorlik pedagogikasi, ijtimoiy muloqot, xalqaro hamkorlik, birgalikdagi faoliyat, ijtimoiy kompetentlilik, kommunikativ kompetensiya.

Jahon miqyosidagi globallashuv jarayonlari va uning natijasida mamlakatlar, hududlar va xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik asosida madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy munosabatning rivojlanib borishi doirasida hamkorlik talaba-yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda aniq ko‘rsatmalar ishlab chiqishga bo‘lgan ehtiyojini taqozo etmoqda. Ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash orqali pedagogik relaksatsiyasini tiklash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda.

“Hamkorlik” tushunchasi keng qamrovli bo‘lib, umumiy maqsadlarga erishish uchun birgalikdagi samarali faoliyatni taqozo etadi. Hamkorlik pedagogikasi – bu shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishi yo‘lida muhim qadam hisoblangan, bolalarni o‘qitish va tarbiyalashda nafaqat o‘qituvchilarning o‘quvchilar va hamkasblar bilan shuningdek, ota-onalar, mahalla faollari bilan birgalikdagi faoliyatidir. Ota-onalar, mahalla faollari, nodavlat va notijorat tashkilotlar bilan birgalikdagi harakat dars va darsdan tashqari faoliyatda ularning ishtirok etishi, ta’lim-tarbiya jarayoni sifat va samaradorligini oshirishda yordam ko‘rsatishi, mavjud muammolarni birgalikda hal etish va o‘zaro hamfikrlilik muhitini tashkil etishni talab etadi. Pedagog-novatorlar faoliyatini kompleks o‘rganish pedagogika fani rivojiga o‘z hissasini qo‘shadigan, yuqori natijalarni ko‘zlaydigan ularning har biri iste’dodli pedagoglar ekanligini ko‘rsatadi.

Hamkorlik pedagogikasining g’oya va tamoyillarini amalga oshiruvchi pedagog-novatorlarning konseptual g’oyalarini tahlil etish talabalarning ta’lim-tarbiyasiga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Hamkorlikka asoslangan pedagogika o’qituvchi hamda talabalar birgalikdagi faoliyatini ifodalovchi tizim bo’lib, bu jarayonda faoliyat samaradorligi namoyon bo’ladi. Yangi maqsadlarni ro’yobga chiqarish imkoniyati ta’minlanadi.

Hamkorlik pedagogikasi yangi vositalar bilan kompyuter texnikasi yordamida muloqot jarayonini optimallashtiradi hamda axborotli mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Shuning uchun ham hamkorlik pedagogikasi ta’lim jarayonida qo’llash uchun o’quv materiallariga ishlov berishda yangi ta’lim metodlaridan foydalaniladi. Shu maqsadda hamkorlik pedagogikasi bir qator fan sohalari bilan kesishadi. Xususan, ijtimoiy muloqot nazariyasi, axborot texnologiyalari, mantiq, tilshunoslik, shuningdek, shaxsiy kuzatishlar, tajriba-sinov natijalari, psixologiyaga oid bilimlar shular jumlasidandir .

“Hamkorlik” tushunchasi zamonaviy insonparvarlikka yo’naltirilgan pedagogikaning yetakchi tushunchasini o’zida ifoda etadi. Hamkorlik – eng umumiy ma’noda kishilarning mehnatdagi o’zaro harakati, ya’ni ularning birgalikdagi faoliyatidir. Hamkorlik o’zida birgalikdagi faoliyatning asosiy belgilarini aks ettiradi. Bularga maqsadning birligi, ishtirokchilarning birgalikda hamkorlikda ishlashi, yaxlit jarayonning alohida o’zaro aloqador qismlarga taqsimlanishi, ularning ishtirokchilar o’rtasida taqsimlanishi, individual faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqaralishi, yagona yakuniy natijaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin. Hamkorlikning pedagogik mohiyati S.L.Rubinshteynning faoliyat va shaxs rivojlanishining aloqadorligi haqidagi psixologik qonuni asosida yanada aniq mohiyat kasb etadi. Demak, ta’limni tashkil etishning mazkur shakllarini ahamiyati yuqori bo’lib, butun pedagogik jarayoning hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali hamkorlik pedagogikasining ilg‘or uslublarini joriy etish asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va korporativ xizmatlarda ishtirok etishini ta’minlash uchun imkoniyatlar yaratish vazifalari

yetakchilik qilmoqda. Binobarin, hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni hozirgi kun talabiga to‘la javob bera oladigan yetuk salohiyatli etib tayyorlash zarur.

Sh.A.Abdullayevaning “Hamkorlik pedagogikasi” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasida pedagogik hamkorlik, hamkorlikka oid yondashuvlar [1], V.Petrovaning “Darsda pedagogik hamkorlik o‘qitishni faollashtirish va o‘quvchilarni rivojlantirish vositasi sifatida” mavzusidagi, Yu.Kostinkoning “Darsdan tashqari faoliyatda yuqori sinf o‘quvchilarining produktiv hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusidagi, O.Balashovning “Sinf ijtimoiy tarmog‘i sharoitida o‘quv-bilish faoliyatida o‘quvchilarning hamkorligini rivojlantirish” nomli asarlarida hamkorlik pedagogikasi asosida ta’lim-tarbiya sifati samaradorligini oshirishning konseptual masalalari, hamkorlikka asoslanilgan o‘qitish jarayonini tashkil etishning ayrim texnologik jihatlari yoritilgan.

Hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning pedagogik mexanizmi, ularning refleksiv mushohada yuritishi, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, samarali muloqot texnologiyalari va texnikasiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik jihatlari to‘laonli o‘rganilmagan va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yetarlicha o‘z yechimini topgani yo‘q. Hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash orqali muammo doirasidagi mavjud ilmiy-pedagogik, hamkorlik pedagogikasiga oid manbalarni o‘rganish asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash muammosini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslaniladi.

Talabalarda hamkorlik pedagogikasi tushunchasini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish hamda pedagogik-psixologik xususiyatlarini o‘rganish, shuningdek, hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlash metodikasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorlik darajasini aniqlash amalga oshiriladi.

Hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning mantiqiy – funksional tuzilmasi, pedagogik modeli, ustuvor tamoyillari, innovatsion texnologiyalari ishlab chiqilmoqda.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, hamkorlik pedagogikasi asosida talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda mahalla, oila, oliy ta’lim hamkorligi mexanizmi, samarali omillar va asosiy yo‘nalishlar sifatida o‘rganilishi zarur.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning quyidagi mezonlari va ko’rsatkichlari mavjud:

- ta’lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatning dialogik tavsifga (dialogik munosabatlar jarayonidagi subyektlarning kommunikativ ustanovkalari) egaligi;

- ta’lim-tarbiya jarayonining subyektlarda qadriyatga yo‘naltirilgan munosabatining (o‘zaro hurmat, o‘zaro ishonch, o‘zaro bir-birini tushunish, mas’uliyatni ongli his etishda subyektlarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatga qadriyatga yo‘nalganligi) umumiyligi;

- subyektlarning o‘zaro birgalikdagi harakatining muvofiqligi (o‘zaro birgalikda maqsadni belgilay olish ko‘nikmasi, unga erishish usullarini rejalashtirish, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, maqsadga erishishni hamkorlikda nazorat qilish, olingan natijalar asosida yangi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish).

Kommunikativ-faoliyatga yo‘naltirilgan bosqich o‘qituvchi va ota-onalarning o‘zaro faoliyatining uyg‘unlashuvi, shuningdek, oila va maktab pedagogik vazifalarining o‘ziga xosligi, ularning pedagogik imkoniyatlarining yuqori ekanligini anglashiga imkon beradi. Shuning uchun kommunikativ-faoliyatga yo‘naltirilgan bosqichda o‘qituvchi va ota-onalarning ta’lim muassasasining standart talablari doirasida integrativ pedagogik faoliyatini hamkorlikda loyihalash va amalga oshirish, shuningdek, mazkur faoliyat natijalari asosida o‘qituvchi va ota-onalarning muammolarini o‘zaro birgalikda hal etilishiga alohida e’tibor qaratilishi lozim.

Kognitiv bosqichda integratsion jarayon subyektlarida integratsiya fenomeni, uning tuzilishi, mazmuni, shuningdek, mazkur jarayonni samarali amalga oshirish shart-sharoitlari haqidagi quyidagi bilimlarni tarkib toptirish talab etiladi:

- o‘qituvchi va ota-onalarning pedagogik integrativ faoliyatning nazariy asoslarini o‘zlashtirishi;

- oila va maktab integratsiyasining pedagogik ta’minoti yaratish tizimi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish;

- o‘qituvchi va ota-onalarning tarbiyaning samarali texnika va texnologiyalarini o‘rganishi.

“Kompetensiya” ma’lum bir kompetentlilik kontekstida qo‘llaniladigan aniq faoliyat sohasidagi ko‘nikma va malakalarni o‘zida ifoda etadi.

Kompetentlilik esa, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliy faoliyat tajribasiga aylantirish, kundalik jarayonda qo‘llay olish layoqatini bildiradi [3]. Pedagog olimlardan M.M.Murtozayevaning fikricha, ijtimoiy kompetentlilik quyidagi o‘ziga xosliklarga ega:

- shaxsning mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va uni amalga oshirishda ishtirok etishi, turli etnomadaniyat va dinlarga tolerant munosabatda bo‘lish, jamiyat ehtiyojlarini to‘g‘ri anglay olish qobiliyati;

- zamonaviy ishbilarmonlik dunyosida muvaffaqiyatli o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiya;

- kundalik hayotida har bir kishining oldida turgan vazifalar va mavjud amaliy ko‘nikmalar o‘rtasidagi tenglikning ta’minlanishi;

- ijtimoiy kompetentlilik – faol fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy madaniyatlararo hamkorlikning o‘zida aks ettiruvchi murakkab tushuncha [3].

Mazkur o‘ziga xosliklardan kelib chiqqan holda, tadqiqot doirasida ijtimoiy kompetentlilik shaxsiy tajribaga tayangan holda sotsiumda mavjud harakat tizimini tavsiflovchi ishonchli va konstruktiv xulq-atvorda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy o‘zaro birgalikdagi harakat sohasidagi kompetentsiyalar yig‘indisi sifatida talqin qilindi. Demak, ijtimoiy kompetentlilik – insonning sotsiumdagi faolligi va shaxsning subyektiv tajribasini namoyon qilishga imkon beruvchi integrallashgan ijtimoiy sifatlar tavsifidir.

Ijtimoiy kompetentlilik tavsifi inson o‘zaro birgalikdagi harakat jarayonida namoyon qiladigan shaxsiy ahamiyatli ijtimoiy sifatlarni ham o‘zida aks ettiradi. Shaxsda ijtimoiy kompetentlilikning shakllanganlik darajasi bevosita uning subyektiv tajribasiga bog‘liq. Subyektiv tajriba inson ongida aks ettirish yo‘li bilan obyektiv dunyo va ijtimoiy amaliyot qonunlarini faol amaliy anglanishi natijasida tarkib topadi.

Ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish o‘zida faoliyatning o‘zaro aloqador va bog‘liq faoliyat yig‘indisini ifoda etadi. Ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirishga yo‘naltirilgan hamkorlik jarayoni o‘zida quyidagilar aks ettiradi:

- maqsad va kutiladigan natijalarni aniqlashtirish, mazkur maqsadlarning jamiyat va shaxs talablari bilan o‘zaro aloqadorligi;

- zarur resurslar, natijaga erishish metod va vositalarni tanlash;

– monitoring jarayoni, korreksiya, ijtimoiy kompetentlilikni shakllantirish bo‘yicha olingan natijalarni tahlil etishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi. – T.: Fan va texnologiya, 2017.
2. Dilova N.G‘. Boshlang‘ich ta’limda o‘zaro hamkorlik muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD). ... diss. – Nukus, 2018.
3. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika. – Toshkent: Sunrise-pro, 2024. – 450 b.